

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILAR QIZIQISHINI OSHIRISH

Nurillayev Samad Safarovich

O'zbekiton- Finlandiya pedagogika instituti katta o'qituvchisi.

Amonov Hasan Halim o'g'li

O'zbekiton- Finlandiya pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilar qiziqishini oshirish uchun mustaqil ishlashni tashkil qilish va o'yinlar orqali tashkil qilish haqida ma'lumot bayon etilgan.
Kalit so'zlar: Qiziqarli matematika, didaktik, sonli ifodalar, o'zgaruvchili ifodalar, komponent, syujetli-rolli.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika darslarida qiziqishini oshirish uchun biz bir necha metod va usullardan foydalanish mumkin. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika faniga mustaqil ishlarni o'rgatish metodisi orqali qancha erta boshlansa shuncha yaxshidir va juda zarurdir. Eng yaxshi maktab ham umuman aytganda, ozgina bilim beradi.

Fanning taraqqiyoti, texnikaning mislsiz yuksalishi bir qancha yangi paydo bo'lgan muammolarni atroflicha idrok qilish va ularni hal qilish zaruriyati- hosil qilingan bilimlar ustida mustaqil ishlay boshlashni talab etadi. O'zidan o'zi o'rgana bilmaydigan, faqat o'qituvchining aytganinigina o'zlashtiradigan mustaqil fikrday olmaydigan kishi ko'p hollarda ishga yaroqsiz bo'ladi. Biz o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli mustaqil ravishda egallab olishga o'rgatishimiz kerak.

O'quvchilarning mustaqil ishi bilan bir necha maqsadga erishiladi:

- a) sinfdagi mustaqil ish uy sharoitini ham mustaqil bajarishga o'rgatadi.
- b) bilim va malakalarni mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek maktabni tamomlab chiqqandan so'ng maktabda olgan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga imkon beradi.
- v) mustaqil ish o'quvchilarda ziyraklik, tashabuskorlik va ijodchilik hislarini, qattiq irodalikni, ishda sabotkor bo'lish va intizom bilan ishlash qobilyatini rivojlantiradi.
- g) u o'qitishni jonlantiradi, o'qituvchiga har bir o'quvchining ish jarayonida bilib olishga, uning kuchli va zaif tomonlarini kuzatishga va qayid qilib olishga keng imkoniyat beradi.
- d) o'quvchilarning mustaqil ishi har bir o'quvchi ishining kundalik hisobini olib borishni osonlashtiradi, bolalarning ishlarini kuzatib boorish o'qituvchiga o'zlashtirishni faqat baho nuqtai nazaridagina emas, balki bundan buyon e'tibor qilish kerak bo'lgan zaif tomonlarini ko'rsatish bilan xarakterlash uchun material beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning qiziqishlarini o'stirishda matematik o'yinlar orqali ham amalga oshirsak bo'ladi. Bunda matematik o'yinlar "qiziqarli matematikaning" bir qismidir.

Qiziqarli matematika boshlang'ich sinflarda o'ziga xos va mos o'rinni olishi kerak: u idrokka hayajon elementlari bilan idrok qilingan narsa esa ko'pincha kishining butun umri bo'yicha esida qoladi.

Qiziqarli matematika ziyraklikni, sezgirlikni taraqqiy etdiradi, topqirlikni o'rgatadi, bolalarning kombinatorlik qobilyatlari rivojlantiradi.

Matematika o'yinlar metodik nuqtay nazardan shu bilan qiymatlikli, ular ilgaridan egallagan malakalarini mustahkamlaydi, matematika faniga qiziqishini uyg'otadi, bolalarda bundan keyin ham matematika faniga, mashg'ulotlariga intilish paydo bo'ladi. Matematika o'yinlar va topishmoqlar, qiziq masalalar, sonli munosabatlar, bosh qotiradigan jumboqlar shaklidagi matematik o'yinlar ko'pincha sinfdagi ishlarni mashg'ulotlarni jonlantirish uchun yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Matematik o'yinlarni o'tkazish uchun ham vaqt va o'zlariga muvofiq didaktik material kerak bo'ladi. Shuning uchun matematik o'yinlarni ko'pincha darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun tavsiy qilish mumkin. Matematika darslarida esa vaqti-vaqti bilan o'quvchilarni u yoki bu o'yinning mohiyati, uning qoidalari bilan tanishtirish va o'yinning o'zini ham o'tkazish kerak.

Matematik ermaklar termini(atamasi) birlashtirilgan matematik mashg'ulotlar guruhi harxil qiziqtiradigan masalalar, boshqotirmalarni hal qilishdan va matematik mazmunli topshiriqlarni yechishdan iborat.

Matematikadan sinfdagi mashg'ulotlardan tashqari o'quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ularda bu fanga sevish hosil qilish maqsadi bilan sinfdan tashqari mashg'ulotlar tashkel qilish juda ham ma'qul ishdir. Sinfdan tashqari (ishlar) mashg'ulotlar quyidagi formada bo'lishi mumkin:

- matematik kechalar tashkel etish (qiziqarli masalalar yechish, matematik o'yinlar).
- Matematik burchaklar tashkel etish: bu yerda matematikadan sinfdagi hamda sinfdan tashqari ishlarning natijalari to'planadi.
- Matematika gazitasi.
- Matematika sayohatlari.
- Matematik o'yinlar va ermaklar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quvchilarning hisolblash malakalarini shakllantirichda, o'quvchilarni fanga qiziqtiradigan o'yinlarning ahamiyati kattadir.

"Nechta o'qil, nechta qiz?", "Tug'ilgan kun va oyni topish", "Yoshingiz nechada?" ekanini aniqlash, "Uch xonali sonni topish" kabi o'yinlarni o'quvchilarga o'rgatish, o'zaro yoki guruhlariga bo'linib, bunday o'yinlarda qatnashish bolalarning hisiolblash malakasining oshishiga yordam beradi. Biz quyida ushbu o'yinlarni tahlilini keltiramiz:

QIZIQARLI MATEMATIKA

1- sinf

Ketdik, ketdik, to'xtadik


Mavzu. "20 gacha sonlarni qo'shish va ayirish".

Maqsadlari. O'quvchlarning 20 gacha bo'lgan sonlar ustida og'zaki hisoblash malakalarini takomillashtirish.

Jihoz. "Kata yumshoq kubiklarni sag'lash uchun "Qop", LEGO, karton doira.

DARSNING BORISHI

8 sektorga ajratilgan karton doira javonda turibdi.



4 kishi qatnashadi (bolalar ko'p sonda bo'lsa o'yin qoidalarini o'zgartirish mumkin)

Barcha qatnashuvchilar o'yin maydoniga chiqadilar va o'yindoirasi bo'ylab chopa boshlaydilar. Boshlovchi "to'xta" deganda barcha qatnashchilar birorta raqam ustida turib qoladilar. Boshlovchi ixtiyoriy raqamni aytadi, bu raqamda turgan qatnashchi loskada unga taklif etilgan topshiriqni bajaradi.

Boshlovchi rolini o'qituvchi bajaradi.

Topshiriqlar doskaga yoziladi.

Doskada:

1. Bir xonali sonlarni doiracha bilan, ikki xonali sonlarni to'rtburchak bilan o'rang.

15	6	66	1
8	27	5	3

2. Sonlarni o'sish(kamayish) tartibidan strelkalar bilan birlashtiring.

17 18
10 16 14
20 11 15
12 19

3. Barcha juft sonlarni o'chir.

4. Qolgan sonlar ichida 12 dan katta va 18 dan kichik sonlarni o'chir

5. Misollar to'g'risiga "+" yoki "-" ishoralarni qo'y. Agar misol to'g'ri yechilgan bo'lsa "+" qo'y, aks holda – "-".

$$8 + 8 = 16$$

$$7 + 7 = 13$$

$$5 + 5 = 15$$

$$6 + 6 = 12$$

$$19 - 8 = 11$$

$$14 - 5 = 8$$

$$16 - 4 = 13$$

$$13 - 7 = 6$$

6. "Qo'shni" larni top (oldingi va keyingi sonlar):

6 10 14

5 9 19

(javob yozish shakli: $5 < 6 < 7$)

7. Qatorni davom ettir, yana 2 ta son yoz. Buni tushuntir:

1 3 5 ... 10 13 16 ...

2 4 6 ... 11 9 7 ...

8. Eng kata va eng kichik bir xonali sonlarni qo'sh, natijadan 7 sonining "o'ng qo'shnisini" ayir

Bundan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkin ekan, biz boshlag'ich sinf o'quvchilarini matematika faniga qiziqtrish uchun mustaqi ishlashga o'rgati metodikasi va qiziqarli o'yinlar metodikasi orqali tashkil etish samarali deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

M. E. Jumayev . Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T, O'qituvchi. 2003-y.

Q. N. Tursunov va boshqalar . Boshlang'ich sinflarga matematika o'qitish metodikasi.(ma'ruzalar matni , amaliy mashg'ulotlar uchun ishlanmalar) Sam. Du .2008-y.

Q. N Tursunov va boshqalar Boshlang'ich sinf matematika darslarida tarbiyaviy vazifalarni xal qilish. Ziyokor .N 10. 2010-y.

Boshlang'ich ta'limning matematika darslari. T. O'qituvchi .2008-y.

Q. N. Tursunov , Sh. Toshmurodov Boshlang'ich sinflarning matematika darslarida iqtisodiy tabiya . Ziyokor. N.1. 2010-y.

O. T. G'offurova . Interfaol metodlar ta'lim standartlari. B/t. 2008.N.6.

R. Safarova , 21-asr pedagogikasining dolzarb vazofalari Xalq ta'limi 2007-y. N. 2. 4-7 bet.

I. To'xtaxadjayev , Pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish . Xalq ta'limi .2006. N. 4.